

2020- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rinn tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2020- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2 594,3
mlrd so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

104,8 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
hajmining o'sish sur'atlari

102,9 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan
bozor xizmatlari hajmining o'sish
sur'atlari

2 591,9
ming so'm


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.


Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 594,3 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 330,1 mlrd. so'mga oshdi. Taqposlama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, trln. so'm




2020-yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning iyun oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 144,0 mlrd. so'mga oshdi va 552,5 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 82,5 mlrd. so'mga o'sgan va 410,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020-yilning ikkinchi diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1303,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning ikkinchi diskret choragiga nisbatan (1140,4 mlrd. so'm) hajmi 163,5 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2019 va 2020-yilning birinchi diskret choraklar o'rtasidagi farqi 253,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)**

Xizmatlar - jami	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
shu jumladan:	2 594,3	104,8
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	117,8	111,9
Moliyaviy xizmatlar	602,4	143,1
Transport xizmatlari	453,6	94,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	402,0	99,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	94,1	85,6
Savdo xizmatlari	814,2	95,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	43,6	86,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	81,6	109,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	31,9	101,4
Ijara xizmatlari	40,5	91,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	36,7	93,5
Shaxsiy xizmatlar	54,3	92,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	121,8	119,6
Boshqa xizmatlar	101,8	88,2

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil, moliyaviy xizmatlar 43,1 % ga, me'morchilik sohasidagi xizmatlar 19,6 % ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 11,9 % ga, ta'lif sohasidagi xizmatlar 9,1 % ga o'sishi hisoblanadi. 2020- yilning yanvar-iyun oylarida jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyun oylarida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ularning ulushi 31,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (23,2 %), transport xizmatlari (17,5 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (4,7 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,6 %) qayd etildi.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha

katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,4 %, ijara sohasidagi xizmatlari - 1,6 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar -1,7 % hissasiga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,
2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan % da
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)**



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (43,1 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (19,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (9,1 %) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,4 %) da qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoxda.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (14,4 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (13,6 % ga), ijara xizmatlari (9,0 % ga), shaxsiy xizmatlar (7,6 % ga), kompyuter ta'mirlash xizmatlari (6,5 % ga), transport xizmatlari (5,4 % ga), shuningdek, savdo xizmatlari (4,2 % ga) da pasayish kuzatildi.

Savdo sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 31,4 %.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinni tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020- yilning yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31,4 % ni tashkil etib, bu 814,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiyligi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismiga, aniqrog'i 80,4 % iga to'g'ri keladi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da

(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)



Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni ta'mirlash
xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari
(avtomobillar va
mototsikllar savdosidan
tashqari)



Avtomobillar
va mototsikllar savdosidan
tashqari chakana savdo
bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,5 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosи bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiylajmi hajmidagi ulushi 8,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar

(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi
602,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.**



**Ularning umumiylajmi xizmatlar hajmidagi ulushi
23,2 % ni tashkil etdi.**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan


**204,3 mlrd. so'mga hajmning ko'payishi
kuzatildi.**



Ularning o'sishi 43,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyun oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,7 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,7 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,6 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadi, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga

Dastlabki ma'lumotlar

katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-iyun oylarida)




2020- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 117,8 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 111,9 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyun oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,3 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,3 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,2 %, noshirlilik xizmatlari, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,6 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yilning yanvar-iyun oylarida)

2020-yilning yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 81,6 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,1 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,1 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyun oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 85,6 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 94,1 mlrd. so'mga teng bo'lган.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 3,6 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

- oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-iyun oylarida)

80,2 %



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar



19,8 %


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmi oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 80,2 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-iyun oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 19,8 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyun oylarida)

2020- yilning yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 31,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiylajmi hajmida ularning ulushi 1,2 % ni tashkil



qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarining daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyun oylarida)



Xizmatlarning umumiyo'ti hajmida Navoiy shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 51,4 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, eng katta ulush, Кармана (12,3 %), Qiziltepa (7,3 %) va Xatirchi (5,1 %) tumanlari va Zarafshon shahri (10,0 %)da qayd etildi.


Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Tomdi (1,7 %), Nurota (2,4 %), Konimex (2,8 %), Navbahor (3,4 %) va Uchquduq tumanlari (3,6 %) da kuzatildi.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da

(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)

Ushbu davrda nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Navoiy shahri (105,5 %), Zarafshon shahri (104,9 %), Qiziltepa (104,8 %), Xatirchi (104,2 %), Uchquduq (104,0 %) va Karmana tumanlari (103,9 %)da qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'limgan o'sish Tomdi (2,6 %) va Konimex (2,9 %) tumanlarida qayd etildi.



Ko'rilib yotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Navoiy shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 117,1 mlrd. so'mga oshdi va 1332,1 mlrd. so'mga yetdi.

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)



NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Navoiy viloyati	2 594,3	104,8	2 591,9
Navoiy sh.	1 332,1	105,5	9 201,5
Zarafshon sh.	259,4	104,9	3081,4
tumanlar			
Konimex	73,3	102,9	2 052,2
Qiziltepa	189,0	104,8	1 241,9
Navbahor	88,8	103,0	783,6
Karmana	318,4	103,9	2 524,2
Nurota	63,2	103,2	681,1
Tomdi	44,6	102,6	3 020,3
Uchquduq	93,7	104,0	2 507,2
Xatirchi	131,8	104,2	660,0

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'satkichlar Karmana (318,4 mlrd. so'm), Qiziltepa (189,0 mlrd. so'm), Xatirchi (131,8 mlrd. so'm) tumanlari va Zarafshon (259,4 mlrd. so'm) shahrida qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan ogilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmogda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 591,9 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil etdi.



2019- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan

- Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.
- Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

**2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni - 12 470 birlikda

Ularning umumiyligi
sonidagi ulushi - 65,1 %

O'tgan yilning shu davriga
nisbatan o'sish sur'atlari - 138,3 %



**2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




2020- yilning
1- iyul holatiga ko'ra,
xiz-matlar sohasida
faoliyat ko'r-satayotgan korxona
va tashkilotlarning
ulushi - 65,1 %,
sanoat - 16,1 %,
qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi - 10,8 %
ga yetdi va atigi 8,0
% I qurilish

sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

**2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (49,7 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 10,2 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 4,7 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,4 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 9019 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo xizmatlari – 36,9 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,2 %, tashish va saqlash - 6,0 %, axborot va aloqa - 1,9 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,7 % hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 40,3 % ni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 480 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 10 376 tani tashkil etdi va o'sishi esa 50,5 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 61,1 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 57,8 % ekvivalentida qayd etildi.



Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel:79-223-63-31